



## NUTQ AKTLARINING TADQIQOT BOSQICHLARI

**Qurbanova Barnoxon**  
Andujon davlat chet tillari  
instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadqiq etilgan mavzuning asosiy mohiyati sifatida muloqotda bolalarga xos nutqiy akt ko‘rinishlarining aks etishi, nutqiy akt tushunchasi va uning jahon tilshunosligidagi tadqiqi, deklarativ, komissiv, ekspressiv nutqiy aktlarning o‘xshashlik va farqli tomonlari umumlashmalarini sanab o‘tishimiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** muloqot, nutqiy akt, bolalar nutqi, peprezentativ va direktiv nutqiy aktlar.

Tilshunoslikda muloqot bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika singari yo‘nalishlarning asosiy izlanish manbasiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Muloqot nutqi ustida samarali izilanishlar olib borish lingvistik pragmatikaning tadqiq sohasiga tegishli bo‘lib, nutq faoliyatini til birliklaridan foydalangan holda, nutqiy muloqotga kirishuvchilarining o‘zaro maqsadlarini bir-biriga bog‘liqligini tadqiq etish nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Bu fikrdan anglashimiz mumkinki, nutqiy akt tushunchasi, insonlar o‘rtasidagi nutqiy munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko‘rinishlari lingvopragmatika o‘rganish obyekti sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Mazkur tushunchalarning rivojlanish davri XX asr ikkinchi yarmidan nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta’limot sifatida shakllanishi bilan bog‘liq holda o‘rganila boshlandi.

Amerikalik olim, tilshunoslikning pragmatika yo‘nalishi asoschilaridan biri Ch.S.Pirsning “tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya”dir[2,27] deya e’tirof etishi, nutqiy akt tushunchasining tilshunoslikka qo‘llanila boshlanishiga sababchi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biz tadqiq etayotgan nutqiy akt tushunchasi, insonlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga asoslangan holda muloqotga kirishadigan nutqiy akt harakati sanaladi.[4,28] Keltirilgan ta’rifdan ko‘rishimiz mumkinki, nutqiy akt - lingvistik xulq-atvor qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli muloqot turi bo‘lib, so‘zlovchi (adresant), tinglovchi (adresat) va nutqiy vaziyat kabi uch birlikni o‘zida mujassam ettiradi. Kishilarning so‘z orqali muloqotga kirishuvi, yoki hohish istaklarini nutq orqali bayon etishi nutqiy aktni keltirib chiqaradi.



Nutqiy akt tushunchasi, muammolari va uni shakllantirish vositalari dastlab tilshunoslikda V. Gumboldt, S. Balls, S. Kartsevskiy, L. P. Yakubinskiy, K. L. Bulsra, E. Benveniste, M. M. Baxtinlarning tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur tushunchaga berilgan ta’rifni biz, uning ilk rivojlanish nazariyasini L. Vitgenshteynning izlanishlarida ko‘ramiz. Olim bunday nutq turli hil maqsadlarni o‘zida mujassam ettirishi va nutq o‘z egasidan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerakligi g‘oyasini ilgari surib, uni “til o‘yinlari” misolida tushuntiradi.

Tilshunoslik matabining ilg‘or namoyondalaridan J.Ostin va J.R.Searl mazkur nazariyani poydevoriga tamal toshini qo‘ygan L. Vitgenshteyn, Ch.S.Pirs va u bilan bir yo‘nalishda ijod qilgan izdoshi C.Morrisning izlanishlarini ilgari surib, pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqqanliklari alohida ahamiyatlidir. Ularning ishlarini o‘rganish asnosida “tilni harakat sifatida tushunish” nazariyasini ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘plab olimlarning fikricha, til va tafakkur bir-birini taqozo qiladi. Ya’ni tafakkursiz til bo‘lmaydi va tilsiz fikrlash mumkin emas. Ko‘p yillik, hatto, ko‘p asrlik izlanishlar, tajribalarga tayanib aytilgan bu fikrlarga biz ham qo‘shilamiz.

Til muloqotning eng muhim vositasidir. Bundan tashqari til aloqa vositasi sifatida aniq tuzilishga ega bo‘lishi va tizim sifatida esa elementlari birligini tashkil qilishi kerak. Zero, tilga aloqa vositasi deb o‘rinli ta’rif berilgan. Biz til orqali turli millat vakillari bilan muloqot qilar ekanmiz, har bir millatning o‘ziga xos va mos madaniyati, urf-odati, san’ati, xalqlarning kundalik yashash tarzidan xabardor bo‘lamiz. Tilshunoslikda nutq va bolalar nutqining ontogenezi, ularda nutq qobiliyatining shakllanishi, individual tilning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va shaxslar tilidagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlar tilshunoslikning ontolingvistika bo‘limida o‘rganib kelindi.

Polyak olimasi Mariya Dakovskaning e’tirof etishicha, muloqotning lingvistik shaklini aniqlashda nutqiy vaziyatning roli muhim ekanligi, nutqiy muloqot jarayonida so‘zlovchining kimga, nima maqsadda, qachon, qaerda, qanday qilib so‘zlashi ko‘p jihatdan muloqot jarayoni kechayotgan nutqiy vaziyatga bog‘liqdir[1,32]. Olimaning ta’rifiga ko‘ra, muloqotning mukammalligi uchun muloqotga kirishuvchilar nutq qobiliyatlaridan to‘liq



foydanishlari kerak. Nutq operatsiyalari (ko'nikmalari) kombinatsiyasi, qaysi maqsadda, qanday vaziyatda, qaysi suhbatdosh bilan muloqot sodir bo'lishiga bog'liq. Ushbu shartlar bajarilganda, suhbatdoshlarda kommunikativ kompetensiya shakllangan deb aytish mumkin. Bunday ko'nikmaga ega bo'lish nutqning ma'qul uslubini tanlash, muloqot shaklini aloqa vazifalariga bo'ysundirish va berilgan sharoitga eng samarali lisoniy va nolisoniy vositalardan foydanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

M.P.Manaenkova "Речевая компетентность личности: содержание и структура" nomli maqolasida shaxs nutqiy kompetensiyasining ahamiyati, mohiyatini ko'rib chiqadi[5,230]. U "nutq kompetensiyasi", "lisoniy shaxs", "nutq faoliyati" tushunchalari atroflicha tahlil qilgan. Maqolada biz muallif tomonidan nutqiy kompetensiyaga berilgan aniq tavsiflarni topishimiz va nutq kompetensiyasining til va kommunikativ kompetensiya bilan aloqadorligini yoritilanini ko'rshimiz mumkin.

Nutq kompetensiyasi diskursiv xarakterga ega bo'lib, tinglovchilar uchun nutqiy xulq-atvor sifatini aks ettiradi. Nutq operatsiyasi – bu nutqning o'ylash jarayoninining birligi bo'lib, uni amalga oshirishda ongsizlik, avtomatizm va barqarorlik bilan tavsiflanadi. A.Leontyev mukammallik kasb etgan nutq operatsiyalarini nutqiy kompetensiya deb nomladi va nutqiy faoliyat turlari (o'qish, yozish, tinglash va gapirish) farqlarini tushuntirish bilan birgalikda, matnda qay tarzda shakllanib, rivojlanishini batafsil yoritdi[3,214].

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik va pragmatikada reprezentativ nutq aktlari bo'yicha tadqiqotlar so'zlovchilar ma'lumotni etkazish va o'z e'tiqodlarini ifoda etishning lingvistik mexanizmlarini o'rganadi. Bu so'zlovchining gapning haqiqatiga sodiqligini ko'rsatish uchun lingvistik tuzilmalarda dalil belgilari, zamon, aspekt va modallikkdan foydanishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar ma'lumotni etkazish va suhbatda umumiylashtirishda boshqarishda tasdiqlash kabi prezaminlar, implikatsiyalar va nutq harakatlarining rolini o'rganadilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dakowska M. Teaching English as a foreing language/Published by Yes Dec Publishing Prt.Itd. – Warsaw 2005 – P. 4-32.



2. Weiss, Paul (1934). "Peirce, Charles Sanders". Dictionary of American Biography. Internet Archive.
3. Леонтьев А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – 214 с.
4. Лингвистический энциклопедический словарь.- М.:Сов, энциклопедия, 1990.
5. Манаенкова М. П. Речевая компетентность личности: содержание и структура // Социально-экономические явления и процессы. – Мичуринск: Мичуринский государственный аграрный университет, 2014. Т. 9. № 10. – С. 223-230.
6. <https://doi.org/10.26133/0162-3257/90/0300-0115506.00/09>